



O'QUVCHILARDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA AMALIY DARS VA BADIY ADABIYOTNING O'RNI

Umaraliyev Humoyun Abdulahad o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590890>

ANNOTATSIYA. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni hayotga tarbiyalash bugunning kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun, albatta, har bir pedagog o'quv jarayonini amaliy hayot bilan bog'lagan holda to'g'ri tashkil etishi zarur. Ta'limda nazariyani amaliyot bilan bog'lash prinsipi bu jarayoni yanada osonlashtiradi. O'quvchilarda onglilik va faollikni yuzaga keltirish, ularni o'z-o'zini baholashiga imkon yaratish hamda badiiy adabiyot na'munalarining asl mohiyatini o'quvchiga yetkazib berish ta'lim oluvchida hayot haqidagi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

АННОТАЦИЯ: Воспитание студентов в образовательном процессе является одним из важнейших вопросов на сегодняшний день. Для этого, безусловно, каждый педагог должен правильно организовать процесс обучения, связав его с практической жизнью. Этому способствует принцип сочетания теории с практикой в образовании. Повышение осведомленности и активности учащихся, предоставление им возможности самооценки и доведение до учащихся истинной природы художественной литературы может помочь в развитии жизненных навыков учащихся.

ABSTRACT: Educating students is one of the most important issues in education today. To do this, of course, every teacher must properly organize the learning process, connecting it with practical life. This is facilitated by the principle of combining theory with practice in education. Enhancing students' awareness and activism, enhancing their self-esteem, and conveying the true meaning of fiction to students will help develop students' life skills.

Kalit so'zlar: Hayotiy ko'nikma, onglilik, faollik, rasmiyatchilik, nazariya va amaliyot, badiiy adabiyot, hadislar.

Biz o'quvchilarimizni hayotga, jamiyat qurilishida qatnashishga tayyorlaymiz. Shuning uchun ta'lim amaliy hayot bilan bog'lanishi kerak. Hozirgi paytda nazariyani amaliy hayot bilan bog'lash

prinsiri alohida ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, uni ta'lim-tarbiya ishining hamma yo'nalishlarida amalga oshirish zarur.

Forobiy har qanday fanni ikki qismga, amaliy va nazariy qismlarga ajratgan. Mana shu qismlarni qisqacha sharhlashda ulardan hayotda foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan. Uning amaliyva nazariy qismlarga bergan ta'riflaridan ta'limni amaliy yo'nalishda olib borish va hayotga, kishilarning kundalik faoliyatiga bog'lash fikri tug'iladi. Nazariyani amaliy hayot bilan bog'lash prinsipini ro'yobga chiqarish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

a) o'rganiladigan materialni o'quvchilarning shaxsiy tajribasiva kuzatishlari bilan, quyi sinflarda esa ularning o'yinlari bilan bog'lash darkor, chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarnio'qitish albatta o'yin faoliyatini talab qiladi;

b) ta'limni atrofdagi hayot bilan, yangi jamiyatni qurish amaliyoti bilan bog'lash;

d) nazariyani amaliyot bilan fanning rivojlanishi jamiyatning ehtiyojlariga bog'liqligini yoritadigan qadamjolarga sayohatlar shaklida bog'lash;

e) nazariy va amaliy yo'sindagi turli masalalarni hal qilish va topshiriqlarni bajarish, va ishlab chiqarishga doir mavjud bilimlar asosida amaliyotlar o'tkazish hamda ularning natijalarini albatta tekshirish. O'quvchilarning unumli mehnati, ya'ni ijtimoiy-foydali ishlarni o'zlariga mos shakllarda yo'lga qo'yish. Mazkur prinsip, xususan, mehnat tarbiyasi va ta'limi jarayonida yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Ta'limda o'quvchilarning ongliligi va faolligi prinsipi talabiga ko'ra o'qitish o'quvchilar ilmiy bilimlarni va ularni amalda qo'llash usullarini ongli hamda faol o'zlashtiradigan, o'quv faoliyati ularning ijodiy tashabbuskorligi va mustaqilligini, tafakkuri, nutqi hamda dunyoqarashini shakllantiradigan yo'sinda tashkil etilishi kerak. Ta'limdagi onglilik o'quvchilar o'z faoliyatlarining aniq maqsadlarini tushunishini, dalillar, hodisalar, jarayonlar va ularning o'zaro bog'liqligini anglashni va o'zlashtirgan bilimlaridan amalda foydalana olishini bildiradi. Shuningdek, ta'limning ongliligi o'quvchilarning o'qishga mas'uliyatli munosabatda bo'lishini, o'qituvchi bergan topshiriqni o'z vaqtida va aniq bajarishga intilishini ham anglatadi. O'quvchilarning faolligi ular sinfda, laboratoriyada ijodiy materiallarni o'rganayotganlarida, topshiriqlarni, ijodiy ishlarni bajarayotganlarida namoyon bo'ladi. Mana shu xildagi ishlar va har xil topshiriqlar o'quv faoliyatida o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish bilan chambarchas



bog'liqdir. Bunda o'quvchilarning faqat adabiyotlar bilan ishlashi yoki turli ta'limiy topshiriqlarni bajarish emas, balki ularning mustaqil fikrlashni o'rganishi, doimiy ijodiy izlanishga intilishi, o'zini uzluksiz nazorat qilishi, bitirgan ishlarning natijalarini mustaqil holda to'g'ri baholashi ham nazarda tutiladi.

Onglilik va faollik prinsipini amalga oshirish o'quvchilarga o'rganiladigan predmet yoki bo'limning maqsadi va vazifalarini tushuntirishdan hamda amaliy ahamiyatini yoritib berishdan boshlanadi. O'quvchilarning bilish faoliyati ularning darsdagi hissiy idroki va amaliy ishlari, o'qituvchining gaplari orqali amalga oshadi. O'quvchilarning bilish faoliyatida o'qituvchining og'zaki axboroti va o'quv adabiyotlarini mustaqil o'qish juda muhim rol o'ynaydi. Ta'limning onglilik prinsipi o'quvchilar yangi materialni idrok etishda faqat ta'riflarni aytib berishni emas, balki ularning muayyan hodisalarga, jarayonlarga bog'liq mazmunini tushunishni ham o'rganishlarini talab qiladi. Aks holda bilimlarda rasmiyatchilik vujudga keladi va o'quvchilar materialni quruq yodlaydigan va qayta so'zlabberadigan bo'ladilar, lekin uning mohiyatini tushunmaydilar va o'zlashtirgan ozmi-ko'pmi bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olmaydilar. Rasmiyatchilikning sabablaridan biri, o'qituvchining materialni bir qolipda bayon qilishidir. Bunday holda o'quvchilarning gaplarini ishonch bilan tinglaydilar va eslab qoladilar, lekin uni fikran tahlil qilmaydilar. Qiziqarli masalalarni qo'yish, ko'rsatmali qurollardan keng foydalanish va o'quvchilarni amaliy ishlarga jalb etish orqali ularni bilish faoliyatini kuchaytirish, bilimlaridagi rasmiyatchilikning oldini olishning muhim vositasidir. O'quvchilarning yangi material bo'yicha bilimlarni tekshirib, uni qanchalik anglaganini va ilgari o'tilgan materialga qanday bog'laganini, uni amalda (har xil masalalarni hal qilishda, turli mashqlarni, mehnat topshiriqlarini bajarishda) qo'llay olishini aniqlash katta rol o'ynaydi. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish o'quvchilarda ana shu bilimlarga ma'lum munosabatni, hissiy kechinmalarni tarkib totirishni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilarning bilimlarni egallashga faol munosabati ularning bilish faoliyatini yanada kuchaytiradi.

Oilada dunyoga kelgan har bir farzand (o'g'ilmi?, qizmi?) eng avvalo shaxs sifatida shakllanmog'i darkor. Shaxs sifatida shakllanish uchun esa jamiyat bilan, undagi boshqa shaxslar bilan aloqaga kirishmog'i zarur. Farzandni shaxs sifatida shakllanishida ko'proq ularga ota-onalar ko'makdosh bo'ladi, ba'zan ularining harakatlari tajriba rolini o'ynaydi. Ammo katta



o'smirlik davriga kelib ular uyidagilarining, o'zidan kattalarning nasihatimiz fikrlariga yon bermaslikka, odatiy uchrab turadigan hodisalar va tanbehlardan uzoqroq bo'lishga urinadilar. Ana shu paytda ularga noodatiy usul bilan murojaat etish zarur. Bunda o'qituvchining munosabati, badiiy adabiyotning o'rni katta ahamiyatga ega. Ular o'zlarini, eng avvalo, inson sifatida anglab olishlari uchun turli tadbir va tanlovlarning tashkil etilishi, darslar jarayonida ulug' allomalar va faylasuflarning hikmatli baytlariga nazar solish maqsadga muvofiqdir. Masalan:

Kimki bir ko'ngli buzuqning hotirin shod aylagay

Oncha borki, Kag'ba vayron bo'lsa obod aylagay.

(A.Navoiy)

Alisher Navoiyning ushbu baytini tahlil qiladigan bo'lsak, unda insonning o'zgalarga bo'lgan eg'tibori, mehr-oqibatini yaqqol ko'rishimiz mumkin: yag'ni, agar kimda-kim ko'ngli ozor topgan, ko'nglida g'ami bor insonning qalbiga yo'l topib uni dilxunlikdan xalos etsa, ko'nglidagi g'amini yengillatishga yordam bersa, g'ussaga botgan ko'ngilni yana xursandchilik bilan to'ldirsa, bilsinki, u vayron bo'lgan Kag'bani yana obod qilish bilan teng bo'lgan ishga qo'l urgan bo'ladi. Ko'rinib turibdiki bu baytda har bir shaxs atrofidagilarning turmush tarziga befarq bo'lmasligi, ular hayotida yuzaga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy muammolarga yechim topish uchun, ruhiy-psixologik zo'riqishlarga barham berish uchun kurashmog'i kerakligi ilgari surilmoqda. Bu bilan inson jamiyatda so'nayotgan bir ko'ngilga qayta hayot nurini bag'ishlagan bo'ladi. Yoki

Odam borki odamlarning naqshidir

borki hayvon undan yaxshidir

A.Navoiy)

Ma'lumki, naqsh deganda ko'z oldimizga jimjimador, jilvakor, ko'zga hush ko'rinuvchi manzara keladi. Odamlarning naqshi deyilganda esa odamiylikning barcha ijobiy sifatlarini (mehnatsevarlik, shirinsuhanlik, tag'vozelik, kamtarlik, mardlik, sahiylik...) o'zida mujassam etgan har tomonlama yetuk, bilimli inson nazarda tutiladi. Odamiylik xususiyatlarini o'zida shakllantirmagan insonni esa hayvondan ham quyi darajada turishi ham aytib o'tilgan. Ko'rinib turibdiki, inson odamlar ichida naqshi bo'lishi uchun odamiylik sifatlarini, ayol esa ayollarning naqshi bo'lishi uchun odamiylik va ayollik sifatlarini to'liq egallamog'i kerak. Bunday sifatni egallagan qizlardan kelajakda oilaning eng yaxshi bekasi, jamiyatning har sohada mukammal bir



bo'lagi vujudga keladi. Bu borada Alisher Navoiy shunday yozadi: "Husni bo'lsa ko'ngilga yoqimli bo'lur, yaxshiligi bo'lsa jon ozig'idir. Aqlli bo'lsa, turmush intizomi va ro'zg'or yarog'i tartibli va saranjom bo'ladi. Ana shunday turmush o'rtog'ing bo'lsa, g'am-kulfatda sirdosh va hamdaming bo'lur, maxfiy va yashirin dard va mashaqqatda hamnafas va hamrohing bo'lur. Turmushdan har jafo yetsa hasratdoshing ul va osmondan bir balo kelsa -ko'makdoshing ul. Ko'ngling g'amidan ul g'am chekadi". Ayollarning oiladagi o'rni, masg'uliyati haqidagi ushbu noodatiy fikrlar qizlar ongiga yetarlicha tag'sir o'tkazadi va ular ruhiyatiga osongina kirib boradi. Chunki o'g'il bolalarga qaraganda qizlar tezroq va osonroq empatiya holatiga tushadi hamda ularda shirin hayol surish holati tez-tez uchraydi. Qizlarning psixologik olamida turmushga chiqmasidan oldin eng avvalo qanday turmush o'rtoq bo'lishi haqidagi tasavvurlar shakllanadi, so'ng esa qanday ona bo'lish tasavvuri yuzaga keladi. Turmush qurgach esa ularning har ikkisi bir maqomga ega bo'la boshlaydi. Shuning uchun qizlarni birinchi navbatda har sohada mukammal turmush o'rtoq bo'lib shakllanishi uchun ko'maklashish va uning ketidan onalikka tayyorlash to'g'riroq bo'ladi. Bu borada ham hadislar va allomalarning fikrlaridan foydalanish qizlar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Masalan, Hadisi sharifda shunday deyiladi: «Agar ayol 5 vaqt namozini o'qisa, ramazon ro'zasini tutsa, nomusini muhofaza qilsa va eriga itoat qilsa, jannatning xohlagan eshigidan kirsin». Yoki yana bir hadisda «Qaysi bir xotin sababsiz (jiddiy zarurat bo'lmasdan) eridan taloq so'rasa, jannat unga haromdir» deyilgan. Bu hadislar ayollarning diniy tomondan ham mukammal bo'lishlari zarurligi, eriga itoatlari tufayli ohiratda jannat bilan siylanishlari haqida mag'lumot berib o'tmoqda. SHuningdek Qurg'oni Karimning «Niso» surasida ayollarga shunday tag'rif berilgan: « (Ayollar ichida) solihalari – bu (Allohdan va eriga) itoatli, g'oyibga Alloh saqlagancha himoyatli (yag'ni erlarning sirlari, mulklari va obro'larini saqlovchi) lardir». Qizlar shuni bilsinki, ayollarning oldida turgan vazifalar, ayollik maqomi hatto muqaddas oyatlar va hadislarda ham belgilab qo'yilgan. Ana shu ayollik maqomiga erishish uchun qizlar albatta bunday fikrlardan habardor bo'lishi kerak. Ayollik nazokati, iffati, nafosati, masg'uliyati, vazifasini bajarish uchun o'rganilgan bilim va egallangan ko'nikma qo'l keladi. O'quvchi o'zini inson sifatida, ayol sifatida anglab yetmasa, his etmasa, turmush jarayonida mashaqqatlar ko'payib boraveradi, oiladagi ruhiy, ijtimoiy muhit asta inqirozga yuz tutadi. Oiladagi ijtimoiy muhit, yeng avvalo, ayollar ruhiyati va faoliyatiga aks tahsir ko'rsatadi. Shu mahnodan xotin-qizlarni ilm-mahrifatli asl ayol

sifatida tarbiyalay olsak, ular jamiyatning chinakam ishbilarmonlari, yuksak ilm-fan egalari bo'lib yetishadi. Demak, adabiyotni o'rgatishdan uch narsa maqsad qilib olinadi: 1) qizlar inson sifatida jamiyatning bir bo'lagi ekanligini tushinib yetadi va insonlarga xos bo'lgan, ularni bezab turuvchi fazilatlarni, qadriyatlarni o'zlashtiradi; 2) qizlar ayol sifatida o'zini anglab yetadi, oiladagi maqomini to'g'ri anglashga erishadi; 3) dunyoviy bilimlarni egallab, tafakkur olami, dunyoqarashi kengayadi. Bu yo'l bilan biz o'quvchilarni nafaqat hayotga tayyorlaymiz, balki ularda bilim va ko'nikmalarni ham shakllantirgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri, -T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari.Pfd.diss.-T., 2006.
3. Husanboyeva Q. Adabiyot- ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili, -T., Alisher Navoiy nomidagi o'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
4. Jumaniyozova M.Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari.Pfn.diss.,2007.
5. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at,-T., Sharq nashriyoti, 2005.
6. Navoiy A. Sittai zaruriya,-T., Fan nashriyoti, 2005.
7. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari,-T., "O'qituvchi", 1996.
8. Sayidahmedov N., Didaktik jarayon loyihasining interfaol metodlari,- T., 1999.
9. Shodiyeva Q. Nutq o'stirish, _T., "O'qituvchi", 2008.
10. Books.google.co.uz
11. Library.ziyonet.uz
12. Reja.tdpu.uz
13. Lex.uz